



Analysis of similarities and distinctive features in the customs of Uzbekistan and China in the development of cultural relations between the two countries

Zarina BAKHRONOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2025

Received in revised form

10 February 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

Keywords:

孝道 (filial piety),
tourism,
values,
holidays,
clothing,
upbringing,
family values,
engagement and wedding
ceremonies.

ABSTRACT

The aim of this work is to analyze the similarities and distinctive features of the customs and traditions of the two countries in the context of developing cultural relations between Uzbekistan and China.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss3/S-pp240-248>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston va Xitoy madaniy aloqalarining rivojlanishida ikki davlat urf-odatlarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

孝道,
turizm,
qadriyatlar,
bayramlar,
liboslar,
tarbiya,
oilaviy qadriyatlar,
nikoy va to'y marosimlari.

Ushbu ishning maqsadi O'zbekiston va Xitoy madaniy aloqalarining rivojlanishida ikki davlat urf-odatlarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari tahlil qilishdir.

¹ Master degree student, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Анализ сходств и особенностей традиций в развитии культурных связей между Узбекистаном и Китаем

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

孝道 (сыновняя
почтительность),
туризм,
ценности,
праздники,
одежда,
воспитание,
семейные ценности,
обряды помолвки и
свадьбы.

Цель данной работы – проанализировать сходные и уникальные черты традиций в развитии культурных связей между Узбекистаном и Китаем.

O'zbekiston va Xitoyni uzoq tarixiy aloqalar bog'lab turadi. Ikki davlat munosabatlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqalib, Buyuk Ipak yo'li orqali savdo, madaniyat va ilm-fan almashinuvi sodir bo'lgan. Aynan shu yo'nalish orqali Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida ipak, qimmatbaho toshlar, ziravorlar, qog'oz, chinni buyumlar va boshqa mahsulotlar savdosi rivojlangan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki madaniy ta'sirning ham o'zaro almashinuviga olib kelgan.

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiyot, infratuzilma, ta'lim va madaniyat sohalarida jadal rivojlanmoqda. Xitoy O'zbekistonning eng yirik iqtisodiy hamkorlaridan biri bo'lish bilan birga, madaniy hamkorlik yo'nalishida ham muhim rol o'ynamoqda. Xitoyda o'zbek madaniyatiga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa, O'zbekistonda ham xitoy tiliga, urf-odatlariga va san'atiga qiziqish oshmoqda.

Xususan, 最有中国味儿的字和词 kitobi mualliflari L.L. Vetrujeskaya va M.B. Xatdapova o'z kitobida chuqur tushuntirib o'tgan xitoy urf-odatlari, madaniyati va an'anaviy bayramlarini misollar bilan juda ham keng yoritib berishgan, aynan mana shu kitobda berilgan madaniy bayram va urf-odatlarni O'zbekiston madaniyati va urf-odatlari bilan solishtirish imkonini beradi. Bundan tashqari xitoy tili o'rganuvchilari orasida juda ommabop o'qib o'rganiladigan HSK Standart Course kitobida xitoyliklarning ovqatlanish vaqtida ishlatadigan 筷子 (kuaizi) va bayram ovqati hisoblangan 饺子 (jiaozi) ya'ni chuchvaralar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan.

Mana shunday qiziqarli ma'lumotlarga tayangan holda mazkur maqolada O'zbekiston va Xitoy madaniy an'alarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi hamda ularning ikki tomonlama aloqalar rivojiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Madaniy jihatdan o'xshashliklar ikki xalq o'rtasidagi tushunishni yanada mustahkamlashga xizmat qilsa, o'ziga xos jihatlari esa turli tadbirlarda bir-birining madaniyatidan o'rganish imkonini yaratadi.

Biz bu maqolada ikki davlatning o'xshash va farqli jihatlari quyidagi yo'nalishlarda ko'rib chiqamiz:

Аn'anaviy oilaviy qadriyatlar

Oila har bir jamiyatning asosi hisoblanadi va O'zbekiston hamda Xitoyda oilaga bo'lgan munosabat madaniy qadriyatlarning eng muhim qismini tashkil etadi. Ikkala xalq ham oilaviy an'alarga katta e'tibor qaratadi, katta avlodni hurmat qilish, oilaviy birdamlik va farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish bu madaniyatlarning umumiy jihatlari biridir.

Katta avlodga hurmat va oilaviy ierarxiya. O'zbekiston va Xitoyda ota-onalar va keksa avlodga hurmat qilish qadimdan muhim an'ana hisoblanadi. O'zbek jamiyatida oiladagi katta yoshli insonlar, xususan, bobolar va buvilar hurmat bilan e'zozlanadi, ularning hayotiy tajribasi va maslahatlariga quloq solish odat tusiga kirgan. O'zbek oilasida ota-onaning duosi va roziligi har qanday qaror qabul qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu singari, Xitoyda ham Konfutsiy ta'limotining ta'siri kuchli bo'lib, "Xiaodao" (孝道) yoki "filial piety" tushunchasi keng tarqalgan. Bu tushuncha ota-onaga va katta avlodga sadoqatli bo'lishni, ularni hurmat qilishni va qarilik chog'ida ularga g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi. Xitoy oilalarida katta yoshdagilar oila boshlig'i hisoblanadi va ularning so'zi e'tiborga olinadi.

Oila birligi va birdamlik.

O'zbekistonda ham, Xitoyda ham oilaning birdamligi muhim qadriyat hisoblanadi. An'anaviy o'zbek oilalarida ko'pchilik aka-uka va opa-singillar birga yashaydi yoki doimiy aloqada bo'lib, bir-biriga yordam berishadi. Ayniqsa, qishloq joylarda kengaytirilgan oilalar, ya'ni bir necha avlod vakillarining bir uyda yashashi hanuz saqlanib qolgan.

Xitoyda ham bu an'ana uzoq yillar davomida mavjud bo'lib kelgan. An'anaviy xitoy oilalari uch avlod vakillarining bir joyda yashashi bilan ajralib turgan. Garchi zamonaviy urbanizatsiya va iqtisodiy o'zgarishlar sababli bu model biroz o'zgargan bo'lsa ham, oilaviy birdamlik va qarindosh-urug'chilik aloqalarini mustahkamlash Xitoy jamiyatida hamon muhim ahamiyatga ega.

Farzand tarbiyasi va ta'limga bo'lgan munosabat.

O'zbekiston va Xitoy oilalarida farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbek oilalarida ota-ona bolani nafaqat yaxshi odob-axloq bilan tarbiyalashga, balki unga mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish va milliy qadriyatlarni singdirishga harakat qiladi. Ta'lim O'zbekistonda muhim o'rin tutadi, ota-onalar farzandlarining yaxshi bilim olishiga intiladi va ularning kelajagi uchun katta sarmoya kiritishadi. Xuddi shu holat Xitoy jamiyatida ham kuzatiladi. Xitoy oilalarida ta'limga bo'lgan talab juda yuqori. An'anaviy xitoylik ota-onalar bolalarini yoshligidan intizomli, tartibli va muvaffaqiyat sari intiluvchi shaxs sifatida tarbiyalashga harakat qiladi. "Tiger parenting" deb ataladigan tarbiya uslubi Xitoyda keng tarqalgan bo'lib, bunda ota-onalar farzandlaridan akademik yutuqlarga erishishni va yuqori natijalar ko'rsatishni talab qiladi.

Nikoh va to'y marosimlari.

O'zbekiston va Xitoyda nikoh va oila qurishga bo'lgan yondashuv an'anaviy qadriyatlarga asoslangan. O'zbek oilalarida to'y marosimlari juda katta bayram sifatida nishonlanadi. An'anaviy nikohda kelinning ota-onasidan rozilik olish, sovchilik marosimi va to'y oldi rasm-rusumlar katta ahamiyatga ega. Yangi kelinchak oilaga moslashishi va qaynonaning hurmatini qozonishi muhim sanaladi.

Xitoyda ham nikoh marosimlari an'anaviy urf-odatlariga asoslanadi. An'anaviy xitoy to'ylari qizil rangdagi bezaklar bilan o'tadi, chunki qizil baxt va farovonlik ramzi hisoblanadi. Kelinning ota-onasidan ruxsat so'rash va kuyov tomonidan kelin tomoniga sovg'alar berish marosimlari ham qadimdan davom etib kelgan. Zamonaviy Xitoyda esa ko'pchilik yoshlar an'anaviy urf-odatlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirib, oddiyroq to'ylarga ham ustunlik bermoqda.

Oilaviy bayramlar va an'analar.

O'zbek oilalarida oilaviy bayramlar juda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, Navro'z, Qurbon hayiti, Ramazon hayiti kabi bayramlar butun oila a'zolarini bir joyga jamlaydi va birlikni mustahkamlaydi. Bu bayramlar davomida oila a'zolari bir-birinikiga mehmonga boradi, kattalar duolari olinadi va mehmondo'stlik namoyon etiladi.

Xitoyda ham oilaviy bayramlar juda muhim hisoblanadi. Bahor festivali (Chunjie) yoki Xitoy Yangi yili Xitoydagi eng muhim bayram bo'lib, bu paytda oilalar bir joyga to'planadi, uzoq masofada yashaydigan qarindoshlar bir-birinikiga tashrif buyuradi va an'anaviy taomlar tayyorlanadi. Shuningdek, Oila kunlari, Ajdaho qayiq festivali, Oltin kuz festivali kabi tadbirlar ham oilaviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mehmondo'stlik

O'zbekiston va Xitoy – qadimiy an'analar va boy madaniyatga ega ikki davlat bo'lib, mehmondo'stlik ularning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Har ikkala mamlakatda mehmon kutishⁱ madaniyati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u do'stlik, hurmat va insoniy munosabatlarning muhim qismi hisoblanadi. Quyida O'zbekiston va Xitoy mehmondo'stligining o'xshash jihatlari haqida so'z yuritamiz. Xitoyliklar o'z yaqin do'stini mehmonchilikga taklif qilish orqali mehmonga bo'lgan o'zlarining samimiy munosabatlari va xulq atvorini namoyish qilishadi. Ayniqsa, ular yangi uyga ko'chib o'tishganda ham qarindoshlari va do'stlarini mehmondorchilikka chaqirib ularni taniq taom va chiroyli muhit bilan siylashadi bu 暖房(nuanfang) ya'ni iliq xonadon ma'nosiga ega bo'lib, yangi xonadonning ilk mehmonlarini iliq kutib olishadi. Bunda nafaqat taniq va mazali taomlar, shu bilan birga o'zaro samimiy suhbat, har xil mavzularda qiziq gaplar va ko'tarinki ruhdagi hamgomalar ham bo'lib o'tadi.

Mehmon hurmati va mehmon kutish odoblari.

O'zbekistonda mehmonni kutib olish juda katta e'tibor talab qiladi. Mehmon tashrif buyurganda mezbon uni hurmat bilan qarshi oladi, eng yaxshi joyga o'tqazadi va dasturxonga eng saralangan taomlarni tortadi. Shu bilan birga, mehmon kelganda unga choy tortish O'zbekistonda qadimdan shakllangan urf-odatlardan biridir. Xitoyda ham mehmon hurmati katta ahamiyatga ega. Mehmon uyga kirganda mezbon unga iliq so'zlar bilan murojaat qiladi, hushmuomalalik bilan kutib oladi va dasturxonga choy tortadi. Xitoy an'alarida ham mehmon uchun eng yaxshi taomlar tayyorlanadi va unga hurmat belgisi sifatida mezbon o'z taomidan mehmonning likopchasiga solib berishi mumkin.

Dasturxon va mehmon uchun maxsus taomlar tayyorlash.

O'zbekistonda mehmon kelsa, albatta, dasturxon yoziladi va unga milliy taomlar tortiladi. Osh, somsa, qandolat mahsulotlari, turli xil salatlar va shirinliklar mehmonning hurmatiga tayyorlanadi. Mehmonni och qoldirish o'zbek madaniyatida odobsizlik hisoblanadi. Xitoyda ham mehmon uchun maxsus taomlar tayyorlash an'anasi mavjud. Xitoy milliy taomlaridan dim sum, choyxo'rlar uchun turli xil choy navlari, baliq va dengiz mahsulotlari mehmon dasturxonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mehmonning lazzatlanib ovqatlanishi mezbon uchun katta sharaftir.

Mehmon bilan samimiy munosabat.

Har ikkala mamlakatda mehmon bilan suhbat qurish va uni e'tibor bilan tinglash muhim hisoblanadi. O'zbekistonda mehmonni iliq so'zlar bilan qarshi olish va uning kelish sababini hurmat bilan tinglash madaniy odatlardan biri sanaladi. Odatda, dasturxon atrofida uzoq suhbatlar bo'lib o'tadi, bu esa mehmonning o'zini qulay his qilishiga yordam beradi.

Xitoyda ham mehmon bilan samimiy muloqot muhim sanaladi. Mehmon oldida o'zini juda rasmiy tutish odatiy hol emas, aksincha, uni ochiq chehra bilan kutib olish, tabassum qilish va iliq so'zlar aytish Xitoy mehmondo'stligining ajralmas qismidir.

Mehmonni kuzatish an'analari.

O'zbekistonda mehmonni hurmat bilan kuzatish ham alohida e'tibor talab qiladigan odatlardan biridir. Mehmon ketayotganida mezbon uni eshik oldigacha kuzatib qo'yadi va unga yaxshi tilaklar bildiradi. Ko'pincha mehmon bilan yana uchrashish umidida xayrlashiladi.

Xitoyda ham mehmonni kuzatish odatiy hol bo'lib, mezbon uni eshik oldigacha kuzatib qo'yadi. Mehmon jo'nab ketayotganida unga bexatar uyigacha qaytishini tilab, qo'shimcha choy yoki meva bilan yo'lda iste'mol qilish uchun sovg'a qilish ham xitoyliklarning mehmondo'stlik odatlaridan biridir.

An'anaviy bayramlar

O'zbekiston va Xitoy uzoq tarix va boy madaniyatga ega davlatlar bo'lib, ularning bayramlari ham qadriyatlar, oila va jamiyat birligini mustahkamlash kabi umumiy g'oyalarga asoslangan. Ushbu ikki mamlakatda ma'no va mohiyati jihatidan o'xshash bo'lgan bir necha bayramlarni taqqoslash mumkin. O'zbekistonning an'anaviy bayramlari kabi xitoy an'anaviy bayramlarini ham o'z milliy taomlari mavjud, misol uchun Bahor bayrami 春节 (Chunjie da) 饺子 (jiaozi-chuchvara), 元宵节 (Yuanxiao Jie) Fonuslar festivalida 唐元(tang yuan) shirinligi, 端午节 (Duanwu Jie) Ajdarho bayramida 粽子 (zongzi-bambuk barglariga o'ralgan guruchli taom), 中秋节 (Zhongqiu Jie) Kuz festivalida 月饼 (yue bing-oy shaklida yasalgan shirinlik)lar tayyorlashadi.

Navro'z va Bahor festivali (Xitoy Yangi yili).

Navro'z-O'zbekistonda bahor faslining boshlanishi va tabiatning uyg'onishini nishonlash bilan bog'liq eng qadimiy bayramlardan biri. Bu bayramning asosiy mohiyati yangi yilga kirish, tabiatga hurmat va oila, do'stlar bilan birdamlikda bo'lishdan iborat. Xitoyning Bahor festivali ham yangi yilning boshlanishi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu bayramda insonlar oila a'zolari bilan birga bo'lishadi, uylarini bezatishadi va qadimiy urf-odatlarini bajarishadi.

Ikkala bayramda ham uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan qadriyatlar saqlanib qolgan. O'zbekistonda Navro'z kuni sumalak tayyorlash, milliy o'yinlar o'tkazish va tabiatni e'zozlash an'anasi mavjud bo'lsa, Xitoyda Bahor festivali davomida qizil qog'ozlarga baxt tilovchi yozuvlar yozish, mushakbozlik va oilaviy yig'ilishlar katta ahamiyat kasb etadi.

Ramazon hayiti va Oltin kuz festivali (Oy festivali).

Ramazon hayiti O'zbekistonda Islom diniga asoslangan muhim bayramlardan biri bo'lib, u saxovat, poklik va oilaviy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan. Ushbu bayram davomida odamlar hayit namozini o'qib, bir-birlarini yo'qlashadi, sovg'alar ulashadi va muhtojlarga yordam berishadi.

Xitoyda Oy festivali yoki Oltin kuz festivali ham oilaviy qadriyatlar va mehr-muruvvatni ifodalovchi bayramlardan biri hisoblanadi. Bu bayram Xitoyda hosil yig'im-terimi bilan bog'liq bo'lsa-da, uning asosiy mohiyati oila bilan vaqt o'tkazish va birlikni mustahkamlashdan iborat. Bayram davomida mashhur oy pirogi (yuebin) iste'mol qilinadi, shuningdek, oyga qarab tilaklar tilash an'anasi bor. Ramazon hayitida ham shirinliklar tayyorlash, osh va milliy taomlarni iste'mol qilish, qo'ni-qo'shnilar bilan bir-biriga mehmondorchilik qilish odati mavjud.

Qurbon hayiti va Ajdaho qayiq festivali.

Qurbon hayiti O'zbekistonda fidokorlik va saxovat bayrami sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram Payg'ambar Ibrohim(a.s.)ning Allohga bo'lgan sadoqatiga asoslanib, qurbonlik qilish, muhtojlarga yordam berish va oilaviy birdamlikni mustahkamlash bilan bog'liq. Odamlar bir-birlarini yo'qlab, o'zlarining mehr-muruvvatini namoyon etishadi.

Xitoyning Ajdaho qayiq festivali ham tarixiy qahramon Qu Yuan xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, milliy g'urur va birdamlikni ifodalaydi. Bayramda ajdaho qayiqchilari poygasi o'tkazilib, odamlar guruchli taom – zongzi iste'mol qilishadi. Har ikkala bayramda ham tarixiy shaxslarni xotirlash, jamoatchilikni birlashtirish va an'analarni davom ettirishga katta ahamiyat beriladi. Qurbon hayitida muhtojlarga yordam berish asosiy qadriyat bo'lsa, Ajdaho qayiq festivalida xalq qahramonlariga hurmat bajo keltirish va jamiyat birdamligini mustahkamlash asosiy maqsad hisoblanadi.

An'anaviy liboslar

Xitoyning an'anaviy liboslariga quyidagilar kiradi: Hanfu (汉服) – Han sulolasi davridagi kiyim. Hanfu Xitoyning eng qadimgi milliy kiyimi bo'lib, Han sulolasi davridan boshlab keng tarqalgan. U uzun, keng yengli, kamarga bog'lanadigan va oqimli matodan tikilgan bo'ladi. Zamonaviy Xitoyda Hanfu festivallar, to'y va madaniy tadbirlarda kiyiladi. Qipao (旗袍, cheongsam) – Xitoy ayollarining milliy libosi. Mandjuriyaliklar tomonidan 17-asrda ommalashgan, ammo 20-asrda modern uslubga moslashtirilgan. Tana shaklini ta'kidlaydigan tor kesimli, yoqasi yuqori va tugmalari diagonal joylashgan kiyim. Ko'pincha ipak yoki atlasdan tayyorlanadi va gul naqshlari bilan bezatiladi. Tangzhuang (唐装) – Xitoy erkaklarining an'anaviy libosi. Tang sulolasi davridan boshlab ommalashgan, asosan erkaklar kiyadi. Oddiy, bejirim va ko'pincha ipak yoki baxmal matodan tikilgan, yoqasi tik turadigan qisqa ko'ylak. Ko'proq bayram va rasmiy tadbirlarda kiyiladi.

O'zbekistonning an'anaviy liboslariga esa: Chopon – erkaklar va ayollar uchun milliy ustki kiyim. Chopon uzun va keng bo'lib, ko'pincha baxmal yoki ipak matodan tikiladi. Bahor va kuzda yupqa, qishda esa paxta yoki jun bilan qoplangan qalin choponlar kiyiladi. Chopon kamar bilan bog'lanadi, erkaklar uchun oddiy, ayollar uchun esa bezakli bo'lishi mumkin. Atlas va adras ko'ylaklar – ayollar uchun milliy kiyim. Atlas – ipak va paxtadan tayyorlangan yorqin rangli mato, asosan bayram va to'ylarda kiyiladi. Adras – atlasga o'xshash, lekin qalinroq va kamroq yaltiraydi, kundalik hayotda ham kiyiladi. Ular uzun va keng bichimli bo'lib, ustidan zarbof yaktak yoki kamzul kiyish mumkin. Do'ppi va bosh kiyimlar

O'zbek erkaklari to'rtburchak shakldagi do'ppi kiyishadi, u har xil naqsh va bezaklar bilan ishlangan bo'ladi. Ayollar esa dugma, ro'mol yoki kallapush kiyishlari mumkin. To'y va bayram liboslari. Erkaklar to'ylarda zar chopon va belbog' taqib, maxsus tikilgan shoyi ko'ylak kiyishadi. Ayollar esa kuyov sarposi deb ataladigan atlas yoki zar chopon kiyib, qimmatbaho taqinchoqlar bilan bezanishadi.

Taom madaniyati

O'zbek oshxonasi go'shtli taomlarga boy bo'lib, palov, manti, lag'mon va shashlik keng tarqalgan. Xitoy oshxonasi esa hududlarga bo'lingan bo'lib, Sichuan taomlari achchiq, Guandong oshxonasi esa yengil va dengiz mahsulotlariga boy hisoblanadi. O'zbekistonda non muhim o'rin tutsa, Xitoyda guruch asosiy mahsulotlardan biridir.

Til va yozuv tizimi

Xitoy va O'zbekiston tillari turli tillar oilasiga mansub bo'lib, ularning fonetika, grammatika va yozuv tizimi sezilarli darajada farqlanadi. Keling, ularni taqqoslab chiqamiz. Xitoy tili sino-tibet tillari oilasiga mansub bo'lib, dunyodagi eng qadimiy tillardan biridir. O'zbek tili turkiy tillar oilasining qarluq guruhiga kiradi va Uyg'ur, Qirg'iz, Qozoq tillari bilan yaqin.

Xitoy yozuvi, Iyerogliflardan (汉字, hànzi) tashkil topib alifboga emas, balki logografik tizimga asoslangan. Har bir iyeroglif alohida so'z yoki ma'no bildiradi, ularni yodlab o'rganish kerak. Hozirgi ishlatiladigan iyerogliflar turi: Soddalashtirilgan iyerogliflar (简体字) – XX asrda soddalashtirilgan shaklda Xitoy va Singapurda qo'llaniladi. An'anaviy iyerogliflar (繁体字) – Tayvan, Gonkong va Makao hududlarida ishlatiladi. Pinyin: Xitoy tilida talaffuzni yozib olish uchun lotin alifbosiga asoslangan transkripsiya ishlatiladi.

O'zbek tili tarixan uch xil yozuv tizimidan foydalangan: Arab yozuvi – XX asrgacha ishlatilgan (hozirda faqat diniy doiralarda uchraydi). Lotin yozuvi – 1929–1940 va 1993-yildan keyin qabul qilingan hozirgi asosiy yozuv tizimi. Kiril yozuvi – 1940–1993-yillarda rasmiy yozuv bo'lib, hanuzgacha ba'zi joylarda ishlatiladi. Hozirda O'zbekistonda rasmiy yozuv lotin alifbosiga asoslangan.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy aloqalar asrlar davomida shakllangan bo'lib, hozirgi kunda ham izchil rivojlanmoqda. Tarixiy jihatdan, Buyuk Ipak yo'li ushbu ikki xalq o'rtasida nafaqat savdo-sotiqni, balki madaniy, diniy va ilmiy almashinuvni ham jadallashtirgan. O'sha davrdan boshlab, O'zbekiston va Xitoy xalqlari bir-birining madaniyatidan ta'sirlangan, bu jarayon esa bugungi globallashgan dunyoda yangi bosqichga ko'tarilgan.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, O'zbekiston va Xitoy madaniyatida o'xshash jihatlar ko'p. Jumladan, an'anaviy oilaviy qadriyatlar, mehmondo'stlik va muhim bayramlar har ikkala jamiyatda ham asosiy o'rin tutadi. Ushbu o'xshashliklar xalq diplomatiyasini rivojlantirish, turizm, ta'lim va biznes sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim asos yaratadi. Biroq, har ikki xalqning o'ziga xos jihatlari ham mavjud. O'zbek va xitoy milliy liboslari, oshxona madaniyati, til va yozuv tizimi o'zining noyob xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu farqlar madaniy xilma-xillikni ta'minlash bilan birga, bir-birining urf-odatlarini o'rganish hamda hurmat qilish imkonini beradi. Bu esa turizm va ta'lim sohalaridagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi madaniy almashinuv davlatlararo hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xitoyda o'zbek madaniyatiga, jumladan, musiqasi, milliy taomlari va san'atiga qiziqish ortib borayotgan bo'lsa, O'zbekistonda xitoy tili, falsafasi va madaniyatiga e'tibor kuchaymoqda. Bu jarayon turli madaniy tadbirlar, ilmiy va ta'limiy almashinuvlar orqali qo'llab-quvvatlanmoqda.

Kelajakda ushbu aloqalarni yanada rivojlantirish uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Jumladan:

Madaniy tadbirlar va festivallarni ko'paytirish, O'zbekiston va Xitoyda har ikki xalqning madaniyati bilan yaqindan tanishish uchun imkoniyat yaratish. O'zbekiston va Xitoy orasidagi madaniy aloqalar yildan yilga tobora mustahkamlanib, turli tadbir va festivallar orqali ikki xalqning o'zaro tushunishi va hamkorligi rivojlanmoqda. 2023-yilning noyabr oyining 11 sanasida “新疆是个好地方” (“Shinjon – go'zal maskan”) deb nomlangan tadbir o'tkazildi, va Xitoyning Shinjon san'at va madaniyat Universitet talabalari tomonidan xitoyning milliy raqs va taronalarini ijro etishdi.

Ta'lim sohasida hamkorlikni kengaytirish, xususan, talabalar almashinuvi dasturlari va til o'qitish markazlari rovojlanmoqda. Talim sohasida hozir talabalarda chetga chiqib o'qib tajriba o'rtirib kelish uchun juda kata imkoniyatlar mavjud. Shasan

o'zim shunday bir imkoniyatga ega bo'lib 2024-yilning aprel oyida ShHT davlatlarining talabalari uchun tashkillashtirilgan “汉语桥” (xitoy ko'prigi) ikki haftalik bahorgi lagerda ishtirok etdim. Ikki hafta davomida ShHT davlatlaridan kelgan talabalar bilan Xitoyning juda ko'plab universitetlarida bo'lib Xitoyning talim tizimi, va talim tizimida kiritilayotgan yangilik va qulayliklar bilan tanishib chiqdik. Shanhai chet tillar universitetining o'zbek tili fakultetida bo'lib, dars jarayonlarida qatnashdik, o'zbek tilini o'rganayotgan xitoy studentlari bilan o'zaro fikr almashdik. Hozirda talabalar alamashuvi orqali xitoy talabalari Samarqand Davlat Chet tillari insitutida va bishqa universitetlarda tehsil olishmoqda, shuningdek O'zbekistondan ko'plab talabalar Xitoyning eng nufuzli universitetlarida tehsil olib bilimlarini oshirib kelishmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish, ikki davlat o'rtasida madaniy sayohatlar va tarixiy yo'nalishlarni ommalashtirish. O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi turizm aloqalari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanib, “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusi doirasida yanada mustahkamlanmoqda. Xitoyda “O'zbekiston turizm yili” tadbirlari o'tkazilib, bu O'zbekistonning sayyohlik salohiyatini Xitoy bozorida targ'ib qilishga qaratilgan. Ushbu tadbirlar ikki mamlakat o'rtasidagi turizm aloqalarini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Sayyohlik biznes-forumlari: O'zbekiston va Xitoy o'rtasida sayyohlik biznes-forumlari tashkil etilib, bu ikki mamlakat tadbirkorlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ushbu uchrashuvlar orqali Xitoydan O'zbekistonga sayyohlar oqimini oshirish maqsad qilingan. 2013-yilda Xitoy rahbari Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusi Buyuk Ipak yo'li doirasida qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bu tashabbus siyosiy maslahatlashuvlar, yo'l aloqalari, savdoni osonlashtirish va pul muomalasi kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. O'zbekistonning ishtiroki: O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, “Bir kamar, bir yo'l” tashabbusining muhim markazi hisoblanadi. Mamlakatimiz ushbu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, faol ishtirok etmoqda. Bu tashabbus O'zbekistonning xalqaro savdosiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Media va san'at sohasida hamkorlikni oshirish, o'zbek va xitoylik san'atkorlar, kinoijodkorlar hamkorligida loyihalar yaratish. Media sohasi to'g'risida gapiradigan bo'lsak Xitoyning eng mashhur “飞来不可” teleko'rsatuvi ijodkorlari oktyabr oyida O'zbekistonga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro qadimiy shaharlarda bo'lib yurtimizning tarixi, tarixiy obidalari, urf-odatlarimiz va milliy taomlarimiz to'g'risida 2 qismlik teleko'rsatuv suratga olishdi. Hozirda bu teleko'rsatuvni “you tube” platformasida va boshqa saytlarda ko'rsa bo'ladi.

O'zbekiston va Xitoyning madaniy yaqinligi ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu hamkorlik nafaqat tarixiy ildizlarga ega, balki kelajakda yanada mustahkamlanishi va yangi yo'nalishlar bilan boyishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jiang Liping, “HSK 4 STANDART COURSE”, BEIJING LANGUAGE AND CULTURE UNIVERSITY PRESS-2014 yil, 155 bet.
2. Wu Xiaoping, “最有中国味儿的字和词”, BEIJING LANGUAGE AND CULTURE UNIVERSITY PRESS-2010 yil, 156 bet.

3. UNESCO. (2021). Silk Roads Programme. Rasmiy veb-sayt: <https://en.unesco.org/silkroad> – Buyuk Ipak yo'li tarixi, madaniy ta'sirlar va O'zbekiston-Xitoy munosabatlari haqida.

4. China Daily. (2023). Chinese Cultural Traditions and Modern Society. Rasmiy veb-sayt: <https://www.chinadaily.com.cn> – Xitoyning an'anaviy madaniyati va uning zamonaviy jamiyatga ta'siri haqida.

5. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. (2023). O'zbek madaniyati va turizmi. Rasmiy veb-sayt: <https://uzbektourism.uz> – O'zbekistonning madaniy merosi, urf-odatlar va turizm sohasi haqida.

6. Konfutsiy Instituti. (2022). Xitoy falsafasi va urf-odatlar. Rasmiy veb-sayt: <https://www.ci.cn> – Xitoyda Konfutsiy ta'limoti va uning jamiyatdagi roli haqida.

7. BBC Food. (2023). Uzbek and Chinese Cuisine: A Comparative Study. Rasmiy veb-sayt: <https://www.bbc.com/food> – O'zbek va xitoy oshxonalarining o'xshash va o'ziga xos jihatlari haqida.
